

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi negizidagi:

**5A111201 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisliklariga  
kiruvchilar uchun maxsus (ixtisoslik) fanlaridan**

**D A S T U R**

**Chirchiq – 2021**

### **Annotatsiya**

Dastur 5A111201 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishining 2018/2019 o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

#### **Tuzuvchilar:**

- A.M.Shofqorov** - TV ChDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.n.
- S.Matchanov** - TV ChDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, p.f.d., prof.
- B.R.Mengliyev** - ToshDO‘TAU Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrası mudiri, f.f.d., prof.

Dastur Gumanitar fanlar fakulteti kengashining 2021-yil 30-iyundagi 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## **Kirish**

Mazkur dastur 2018-2019 o‘quv yilida 5A111201 – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan. Dastur, savolnoma va mezonlari oliy ta‘limning 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi Davlat ta‘lim standartiga asoslanib tuzildi.

### **Asosiy qism**

#### **“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha**

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining o‘quv kurslari qatoridagi o‘rni va ahamiyati shundaki, bu fan o‘zbek tilining, davlat tilining rivojlanish qonuniyatlari, uning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari, fonetik-fonologik, leksik, semantik, grammatik, grafik tizimlari, orfografik va orfoepik me‘yorlari, til birliklarining nominativ, kommunikativ va boshqa funksiyalarini bajarishdagi ishtiroki masalalari bilan tanishtiradi.

O‘zbek tili fonetikasi, fonologiyasi, grafika, orfografiyasi va orfoepiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi va uslubiyatining nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiy tilning shevalarga munosabati, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish va natijada talabalarda o‘zbek adabiy tilining asoslari va og‘zaki adabiy tilning yozma adabiy nutq me‘yorlariga munosabati kabilarni bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o‘z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, bilimlarni amalda qo‘llay olish o‘rganiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy ahamiyati. Adabiy til va umumxalq tilining o‘zaro aloqasi. Fonetika haqida ma‘lumot. Fonetika va uning turlari. Fonetikani o‘rganishning to‘rt aspekti. Fonetika va fonologiya. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unlilar. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undoshlar. Fonetik o‘zgarishlar. Grafika va orfografiya. Orfoepiya.

Leksikologiya haqida umumiy ma‘lumot. So‘zning leksik birlik sifatidagi mohiyati. Leksikologiyaning obykti, predmeti va vazifalari. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, uning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillarning ishtiroki. Leksikologiyaning turlari: umumiy va xususiy leksikologiya. Diaxron va sinxron leksikologiya. So‘zning leksik birlik sifatidagi mohiyati. Leksema til birligi sifatida. Leksemaning ifoda hamda mazmun plani. Leksik va grammatik ma‘no munosabati. Leksik ma‘no va semantik qism (sema). O‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. Leksikografiya haqida ma‘lumot. Leksikografiyaning maqsad va vazifalari. Lug‘at va uning turlari. Leksik ma‘no taraqqiyotiga olib keluvchi lisoniy va nolisoniy omillar. Bir ma‘nolilik (monosemiya) va ko‘p ma‘nolilik. So‘zlarda ma‘no ko‘chish yo‘llari. Leksemaning uzual hamda okkazional ma‘nolari haqida ma‘lumot. Yangi leksik ma‘noning evfemizm natijasida hosil bo‘lishi. Konnotativ sema. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik, uslubiy ma‘no. O‘zbek tilida leksik-semantik sistemalar. O‘zbek tili leksikasining tarixiy

taraqqiyoti. Leksemalarning ishlatilish doirasi. Sinonimiya. Sinonimiyaning ko‘rinishlari. Leksik sinonimlar, sinonimik qator, dominanta. Leksik sinonimlarning turlari. Antonimiya. Lug‘aviy antonimiya. Leksik antonimiya va antonimik juftlik. Kontekstual antonimiya. Antonimiya va enantiosemiya. Antonimiya va polisemiya. Antonimlarning uslubiy ahamiyati. Omonimiya. Omonimiyaning ko‘rinishlari. Leksik omonimlar. Omoformalar. Omonimiya va polisemiya. Omonimlarning yuzaga kelishi. Omonimlarning ahamiyati. Omonimiyaga yondosh hodisalar: Leksik paronimiya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining morfologik tarkibi. Morfologiya. So‘zning grammatik ma‘nosi. So‘zning morfemik tarkibi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.

So‘z turkumlari haqida umumiy ma‘lumot. Mustaqil so‘z turkumlari. Yordamchi so‘z turkumlari. Alohida olingan so‘zlar. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining sintaktik imkoniyatlari. Sintaksis haqida ma‘lumot. Sintaksis va uning turlari. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanish yo‘llari. So‘z birikmasining boshqa til birliklariga munosabati.

So‘z, so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, turg‘un birikma, gap. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Gap bo‘laklari. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Punktatsiya. Uslubiyat. Sintaksis – fikr ifodalash imkoniyati. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi va bog‘lovchi vositalar. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanish yo‘llari. Gapning ifoda maqsadi va imkoniyatlari. Bosh bo‘laklarning ifodalanishi. Ega va kesimning o‘zaro munosabati. Kesim gapning mantiqiy markazi.

### **“O‘zbek adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha**

Ushbu fan adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o‘laroq dunyoga kelgan milliy uyg‘onish adabiyotining xos xususiyatlari kabi masalalar to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Yoshlarni xalqimizning boy ma‘naviy merosiga suyangan holda ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiy-badiiy manbalarni, o‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti namunalarini o‘rgatish, o‘zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko‘lamini yuksaltirish, komil ma‘naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

O‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbek adabiyoti tarixi fani yosh avlodni Vatan va millatga muhabbat, milliy mustaqillikni mustahkamlash ruhida tarbiyalashi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Yangi o‘zbek adabiyoti tarixining shakllanishi, ilmiy maktablar haqida yaxlit tasavvur va ma‘lumot berish, yangi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari hayoti va ijodini tahlil qilishni, talabalarni milliy an‘analarga nisbatan hurmat va

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularlarga o'zbek adabiyotidagi ijodkorlar asarlaridagi eng ilg'or g'oyalar: insonparvarlik, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini singdirish.

O'zbek adabiyoti tarixining eng qadimgi davrlaridan to bugungi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid tarixining taraqqiyot qonuniyatlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida tasavvur berish, shoir, yozuvchi, munaqqidlarlar biografiyasi bilan yaqindan tanishtirish, ularning asarlarini o'qib, tahlil qilish, o'zbek adabiyotidagi badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Axborot almashinuvning globallashuvi, odam imkoniyatining ortishi adabiyot o'qitishga tamomila yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi. "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani bo'lajak filologlarni kelajakda amalga oshiradigan ishlariga zamon talablari darajasida tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari. Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti. Mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari. Mumtoz she'r. Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar. Mumtoz adabiyotda badiiy uslub tushunchasi. Mumtoz o'zbek adabiy tilidagi filologik asarlar va ularning badiiy adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi. Islomgacha bo'lgan davr adabiyoti.

Uyg'ur yozuvidagi yodgorliklar. Yozma yodgorliklar. Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Islom madaniyatining shakllanishi va ilk musulmon Uyg'onish (Renessansi) davri. G'aznaviylar va qoraxoniylar davri adabiyotining asosiy xususiyatlari. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit turk" asari. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. Ahmad Yugnakiyning hayoti va ijodining manbalari. Oltin O'rda o'zbek adabiyoti. Sayfi Saroyi ijodi. "Gulistoni bit-turkiy" asari. Agiografik asarlar badiiy nasr namunasi sifatida. Qutbning "Xusrav va Shirin" asari. O'zbek adabiyotida noma janri. Temuriylar davri adabiyoti. "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlar. Atoyi va Sakkokiy ijodi. Lutfiy va Husayniy ijodi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiy merosi. Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Qul Ubaydiy va Turdi ijodiy merosi manbalari. Mashrab va So'fi Olloyor adabiy merosi. Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Andalib, Munis va Ogahiy. Qo'qon xonligidagi madaniy hayot. Gulxaniy, Nodira va Muhammad Ali adabiy merosi.

Komil Xorazmiy. Muhammad Rahimxon Feruz va Ahmad Tabibiy. Muqimiy va Furqat. Is'hoqxon Ibrat va Karimbek Kamiy. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Ismoilbek Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy. Abdulla Avloniy va To'lagan Xo'jamiyov – Tavallo. Sirojiddin Sidqiy va So'fizoda. Abdurauf Fitratva Hamza Hakimzoda Niyoziy. Yangi o'zbek adabiyoti. Bu adabiyotning asosiy xususiyatlari. XX asrning 20–50-yillari adabiyoti. O'zbek adabiyotida realizm bosqichi. Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek va

Abdulla Qahhor. Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda va Mirtemir ijodiy merosi. Zulfiya, Said Ahmad, Odil Yoqubov va Pirmqul Qodirov ijodiy merosi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Tog‘ay Murod hayoti va ijodi.

### **“O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasining umumnazariy masalalari. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish. Bo‘lajak o‘qituvchilar kompetentligini shakllantirishda adabiyot o‘qitish metodikasi fanining o‘rni. Adabiyot o‘qitish metodikasi kursining mazmuni va qurilishi. Adabiyot o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillari. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashning ahamiyati. Adabiy ta’lim metodlari, usullari, shakllari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi. O‘quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlashda muammoli ta’limning o‘rni. Ta’lim texnologiyalari. adabiy ta’limda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish. Pedagogik innovatsion texnologiyalar va adabiy ta’lim. Modulli ta’lim texnologiyasining xususiyatlari va adabiyot o‘qitishda undan foydalanish. Didaktik o‘yinlar texnologiyasi va uning adabiy ta’limdagi o‘rni. Sinov darslari texnologiyasining adabiy ta’limdagi ahamiyati.

Adabiy ta’limda erkin tarbiya texnologiyasining o‘rni. Blum taksonomiyasi va adabiy ta’lim. Adabiyot o‘qitish metodikasi fanida motivatsiya. Epik asarlar ustida ishlash. Lirik asarlarni o‘rganish. Dramatik asarlar ustida ishlash yo‘llari. Asarlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar. ustida ishlash. Adabiyot o‘quv fanidan beriladigan uy vazifalari. Yozuvchi tarjimai holining berilishiga xos xususiyatlar. Darsda o‘quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o‘rgatish. Adabiyotdan dars shakllari. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari. Adabiyot o‘qitishida inshoning o‘rni va uni tashkil etish yo‘llari. O‘qish turlari va ularning xususiyatlari. O‘qishning adabiy ta’limdagi ahamiyati.

### **“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha**

Ona tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari. Ona tilini o‘qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni. Ona tili darslarining tiplari.

Til ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ona tili ta’limi vositalari. Ona tilidan uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti mazmuni. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarining tuzilishi va mazmuni. Akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining o‘ziga xos xususiyatlari. Fonetika o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Leksikologiya o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Frazologik birliklar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita sifatida. Morfemika va morfologiyani o‘qitish metodikasi. Morfologiya o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. So‘zlarning grammatik ma’nosi ustida ishlash usullari. Mustaqil so‘zlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Fe‘l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so‘z turkumlarini zamonaviy vositalar asosida o‘qitishni loyihalashtirish. Yordamchi so‘z

turkumlarini o'qitish metodikasi. Modal, undov va taqlid so'zlarni o'qitishda qo'llaniladigan metod va usullar.

Sodda va qo'shma gapni o'qitish metodikasi. Gap bo'laklari ustida ishlash. Sodda gap tahlilini o'tkazish metodikasi. Qo'shma gapni o'qitish metodikasi. Qo'shma gap turlarini o'rgatish usullari. Qo'shma gap tahlilini o'tkazish metodikasi. Punktatsiya o'qitish metodikasi. Punktatsiya o'qitishning o'ziga xosligi. Punktatsion xatolarning tiplari. Tinish belgilarining qo'llanishi ustida ishlash usullari. Nutq uslublari ustida ishlash metodikasi. Nutq uslublari bo'limini o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. O'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash usullari. Ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish. Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni. Uzluksiz ta'limning ona tili fanidan darsliklarning tuzilishi va mazmuni. Ona tilini o'qitishda qo'llaniladigan huquqiy va me'yoriy hujjatlar. Ona tilining o'qitilishining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari. Ona tili o'qituvchisi va unga qo'yiladigan kasbiy talablar. Ona tilini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari. Ona tilini o'qitish metodlari tasnifi. Ona tili ta'limida til ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. Ona tili darslarida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ona tili darslarida qo'llaniladigan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari. Ona tilini o'qitishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi. Ona tilidan uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi mazmuni. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" va AL "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni. O'quv va metodik qo'llanmalar, lug'atlar, qomuslar, axborot-ma'lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari. Ona tili o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlar. Ona tilini o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy metodlar. O'quvchilarning til ko'nikmalarini shakllantirish usullari. Ona tili ta'limida rivojlangan davlatlar tajribasi va ularning dars jarayoniga tatbig'i.

Ta'lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, ona tili o'qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish jarayoni, o'quvchilarga ona tilidan bilim va malaka berish yo'llari, ona tilining asosiy vazifasi bo'lgan o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'zini, o'zgalarni va borliqni til vositasida anglashni hamda fikr va his-tuyg'ularni ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, tilshunoslik yo'nalishidagi ilmiy–metodik tadqiqotlar, ta'lim tizimida ona tilini o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi negizidagi  
5A111201 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisliklariga  
kiruvchilar uchun maxsus (ixtisoslik) fanlaridan magistratura kirish imtihoni  
yozma ishlarini o‘tkazish tartibi va baholash mezon**

Ixtisoslik fanlari bo‘yicha magistratura kirish imtihoni ko‘p variantli yozma ish shaklida o‘tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

Yozma ish variantlarining birinchi va ikkinchi savoli “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan; Yozma ish variantlarining uchinchi savoli “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanidan; Yozma ish variantlarining to‘rtinchi savoli “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanidan; Yozma ish variantlarining beshinchi savoli “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanidan bo‘lib, har bir savol 20 balli tizim asosida baholanadi.

Yozma ishni o‘tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

**Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

- berilgan savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to‘g‘ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **17 – 20 ball** oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, savolning mazmuni to‘liq yoritilgan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **14 – 16 ball** oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to‘liq yoritilmagan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **11–13 ball** oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto‘g‘ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo‘yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **0 - 10 ball** oralig‘ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a‘lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz)

**ESLATMA:** Kirish imtihoni jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan abituriyentlar magistratura kirish imtihoni baholari e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va abituriyent o‘rtasida baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:** **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.: «O'qituvchi», 1992.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 391 b.
3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2004.
4. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili fonetikasi. –T.: «Universitet», 1998. 2013
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. "O'qituvchi", T., 1995.
6. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. "O'qituvchi", T.: 1999.
7. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva N., Mengliyev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'zMU, T.: 2004.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: O'qituvchi, 1995. – 359 b.
9. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
10. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2018.
11. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T., 2006.
12. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
13. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2007.
14. Karimov N va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
15. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. –354 b.
16. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167 b.
17. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2010.
18. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiya, 2012.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2008.-193 bet.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 1999 (Qayta nashri - 2002).- 54 bet.
3. Jamolxonov H.O‘zbek tilining nazariy fonetikasi.Toshkent: Fan, 2009.– 223 bet.
4. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.- 135 bet.
5. Hojiyev A.O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari.-Toshkent: Fan, 2010.
6. Komilov N. Tasavvuf. – T.: 2009.
7. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. –T.:Akademiya, 2000.
8. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T., 2010.
9. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 329 b.
10. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
11. Niyozmetova R., Matyoqubova T., Yo‘ldosheva N.O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan kurs ishlarini bajarish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2020. – 104 b.
12. Xolmanova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019.



